

9-12-ASRLARDA MAMALAKATIMIZ HUDUDIDA MADANIY UYG‘ONISH (RENESSANS).BUYUK ALLOMALARNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI

*Zokirjonova Sarvinoz Ma'rufjon qizi ,
Andijon davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi
Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi*

Annotasiya: Bu maqolada O‘rta Osiyoda shakllangan uyg‘onish davri haqida so‘z yuritiladi. Arab xalifaligi davrida tashkil etilgan "Bayt ul-hikma"da ijod qilgan olimlar katta yutuqlarga erishganligi, ularning hayoti , yashash tarzi va yozgan asarlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: renessans, xalifa, mutafakkir, Markaziy Osiyo, Musulmon Rennansi, ilmiy meros, islom madaniyati, Bayt ul-Hikmat

Abstract: This article talks about the Renaissance period that took place in Central Asia. The scholars who worked in the Bayt ul-Hikma, created during the Arab Caliphate, achieved great achievements, their lives, lifestyles and written works are discussed.

Keywords: renaissance, caliph, thinker, Central Asia, Muslim renaissance, scientific heritage, Islamic culture, Bayt al-Hikmat.

Аннотация: данной статье рассказывается о периоде Возрождения, происходившем в Средней Азии. Ученые, творившие в созданной во времена Арабского халифата «Бейт уль-Хикма», добились больших достижений, обсуждается их жизнь, образ жизни и письменные труды.

Ключевые слова: ренессанс, халиф, мыслитель, Средняя Азия, мусульманский ренессанс, научное наследие, исламская культура, Байт ал-Хикмат.

Fanda "Uyg‘onish davri" deb ataladigan G‘arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida 14-16-asrlardagi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba "uyg‘onish" atamasi 16-asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o‘z asarlarida ishlatiladi.[2,154-156]

"Uyg‘onish", "uyg‘onish davri" atamaları 14-16 asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko‘proq antik davr merosini, ya‘ni antik madaniyatga o‘xshash madaniyatini qaytadan "tirilishi, uyg‘onishi" ma‘nosida ishlatila boshlandi. Shu ma‘noda ko‘pchilik tadqiqotchilar 9-12 asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatlarini ham "uyg‘onish" davr deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar.[2,156-158b]

X-XII asrlar O'rta Osiyoda xalqning moddiy va ma'naviy hayotida avvalgi davrlarga qaraganda katta o'zgarishlar yuz berdi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirgi O'rta Osiyo deb ataladigan hududni zabt etgan va bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi qoidalariga bo'ysundirilgan, xalifalik tarkibiga kirgan hududlarda islom dini bilan birga arab tili va imlosi ham joriy etilgan edi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili bo'lib, islom dini esa uning mafkurasi edi. Shuning uchun bu mamlakatlarda arab tilini o'rganishga kuchli qiziqish uyg'ondi. Islomni qabul qilgan aholi arab tili bilan Qur'on suralarini ibodat vaqtida tilovat qilish orqali tanish edi, mahalliy zodagonlar esa arab tilini xalifalik amaldorlari bilan yaqinlashish va o'z siyosiy mavqelarini mustahkamlash uchun o'rganishni zarur deb bildilar. Arab tiliga ehtiyoj va qiziqish ortishi natijasida tez orada Movarounnahrda arab tili va yozuvini ona tilidan ham yaxshi biladigan bilimdonlar paydo bo'ldi. Hududlari kengayib borayotgan xalifalik uchun bilimli kishilar zaruratga aylandi. Davlatni boshqarishda xalifalik ma'muriyatiga bilimdon kadrlar kerak edi, chunki arablar orasida davlat ishlariga yaroqli bilimdonlar kam va ularning ham ko'pchiligi zaif edi.

Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlar arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishni odat tusiga, an'anaga aylantirdilar. Damashq, Qohira, Bog'dod, Kufa, Basra va boshqa shuning singari katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bog'dod shahri Sharqning ilm-ma'rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. 9 asrda bu shaharda xalifa Horun ar-Rashid hukmronligi davri (786-809) da "Bayt ul-Hikmat" (Hikmat xonasi) ga asos solinib, xalifa Ma'mun hukmronligi davri (813-833) da "Bayt ul-Hikmat" ning faoliyati yanada rivoj topgan, uning rasadxonasi va katta kutubxonasi bo'lgan (buyuk matematik Muso Xorazmiy va astronom Ahmad Farg'oniy shu yerda ishlagan). Sharqning fanlar akademiyasi hisoblangan "**Bayt ul-Hikmat**" - o'zbekcha asarlarda "**Bilimdonlar uyi**" yoki "**Donishmandlar uyi**" deb yuritiladi.

Jahon fani va sivilizatsiyaga hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz:

- Muhammad Muso Al-Xorazmiy
- Ahmad al-Farg'oniy
- Ahmad al-Marvoziy
- Abu Nasr Forobiy
- Abu Bakr Muhammad Narshaxiy
- Abu Abdulloh Al-Xorazmiy
- Abu Rayhon Beruniy
- Abu Bakr Al-Xorazmiy

- Abu Ali ibn Sino
- Mahmud az-Zamaxshariy
- Burhoniddin Margʻinoniy [1,91b.]

Xorazmiy, Muso (783. Xorazm – 850. Bagʻdod) – toʻliq nomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Maʻjusi boʻlib, matematik bilimlar taryotida oʻchmas iz qoldirgan buyuk alloma. Xorazmiy dastlabki bilimlarini Xorazmda olgan. Otasi saroy ayonlaridan boʻlganligi, xalifa Horun ar-Rashid (hukmronlik davri 786–809-yil)ning oʻgʻli Maʻmunning Xorazmgga (802–805-yil) noib etib tayinlanganligi va oʻziga tengdosh Xorazmiyni yaqin safdoshlari safiga qoʻshganligi boʻlajak olimning keyingi taqdirida hal qiluvchi rol oʻynadi. 805-yilda Maʻmunning Bagʻdod xalifaligining eng qudratli oʻlkasi boʻlgan Xurosonga hokim etib tayinlanishi (poytaxti Marv shahri) Xorazmiyning hayotida muhim davr edi. Maʻmun Bagʻdodda “Bayt ul-hikma” (ilmlar uyi)ga asos solib, oʻz davrining yetuk olimlari, tarjimonlari, shoiru fuzalolariga homiylik qila boshladi. “Bayt ul-hikma”ga doʻsti Xorazmiyni boshliq qilib tayinladi. Xorazmiy bu lavozimda umrining oxirigacha faoliyat olib bordi. Algoritm tushunchasi hozirgi zamon kibernetika, EHM (elektron hisoblash mashinasi) va hozirgi zamon informatsion texnologiya hamda jarayonlarning asosiy kategoriyasiga aylandi. Xorazmiyning geografiya, tarix, astronomiya fanlari sohalari boʻyicha qilgan xizmatlari beqiyos. Xalifa Maʻmun olimlar oldiga Osmon va Yerning toʻliq xaritasini tuzishni vazifa qilib belgilagan. Xorazmiy bu ishlarga bevosita rahbarlik qilgan. Xaritalar “Majmui al-Maʻmun”, “Dunyo xaritasi” nomi bilan yuritilgan va u 840-yillar atrofida nihoyasiga yetkazilgan. Shu munosabat bilan Xorazmiy joʻgʻrofiyaga oid “Kitobi surat al-arz” nomli asar yaratgan. Bu asarning yagona nusxasi (qoʻlyozma holida) Qohiradan topilgan. Baʼzi manbalarda koʻrsatilgan 22 ta xaritadan faqat 4 tasi saqlanib qolgan. Xorazmiy yer yuzini “Avesto” taʼlimoti boʻyicha 7 iqlimga boʻlib oʻrganishni tavsiya qiladi. Xorazmiyning yulduzlar jadvali fanda “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur. Mazkur jadvalning taxminan uchdan bir qismi al-Fargʻoniy zijida toʻliq berilgan boʻlib, Fargʻoniy asarlari orqali Yevropaga keng tarqalgan. Uning tarixga oid asarlari, xususan, “Xorazmning mashhur kishilari” nomli asar yozganligi va bu asardan Abu Rayhon Beruniy toʻrtta koʻchirma olganligi maʼlum. Xorazmiy oʻrtta asrlarda yetishgan oʻzbek madaniyati klassigi, oʻzbek fanining ilk tamal toshini qoʻygan eng buyuk ajdodlarimizdandir. “Xorazmiy oʻz asarlari bilan Sharq va keyinroq Yevropa riyoziyot ilmiga asos soldi”. (S.Tolstov). Amerikalik mashhur sharqshunos olim D.Sarton “Xorazmiy barcha zamonlarning eng ulugʻ matematiklaridan biridir... Jahon fani tarixining IX asr birinchi yarmini hech mubolagʻasiz Xorazmiy davri deb atashimiz lozim”, – degan edi.[3]

Olimning toʻliq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniydir. Manbalarda uning fargʻonalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa maʼlumotlar saqlanmagan. Al-Fargʻoniy hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish

mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyning hayoti bilan qiyos qilsak, quyidagi hulosaga kelamiz. Ma'lumki, al-Xorazmiyning nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847 -ili xalifa al-Vosiqning o'limi munosabati bilan eslatiladi va shundan so'ng uchramaydi. Shunga ko'ra uning o'lgan yili deb 850-yil qabul qilingan. Al-Farg'oniyning nomi oxirgi marta 861 yili Nilning sathini o'Ichagich uskunasini ta'mirlash munosabati bilan eslatiladi. Al-Farg'oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fihristchilari uni o'z asarlarida eslatadilar.

"Bayt ul-hikma"da taxminan 840-yilga qadar tadqiqotlar olib borgan Ahmad Farg'oniyy keyinchalik Damashq va Qoxirada chuqur ilmiy va amaliy ishlarni davom ettirib, samarali ijodi bilan katta shuhrat qozondi. O'shandan buyon butun dunyoda uning asarlariga bo'lgan qiziqish davom etib kelmoqda.[4]

Ming yildan ortiqroq vaqt avval Buxoroda Abu Ali Hasayn ibn Abdulloh ibn Sino ismli buyuk shaxs yashagan. Uning lotincha ismi — Avitsenna ko'pchilikka tanish.

Ibn Sino birinchilardan bo'lib puls (tomir urishi) haqida ma'lumot bergan, o'lat, xolera kabi kasalliklar bilan tanishtirgan, moxov, gepatit va kuydirgi kasalliklarini ta'riflab bergan. Bundan tashqari, dunyoda birinchi bo'lib ko'z mushaklarining tuzilishini tasvirlagan. O'sha vaqtda u o'zining "qonunlari" dunyoning barcha mamlakatlarida tibbiy ensiklopediyaga aylanishini bilmas edi. Ibn Sino asosi tibbiyot bo'lgan "Urjuza" asarini ham yozgan. Muqaddimada u "Asar uni o'qish qiyin bo'lmasligi uchun sodda, tushunarli she'rlar bilan bayon qilingan", deb yozadi. Bu asar bilan hatto maktab o'quvchisi ham tibbiyotni o'rganishi mumkin edi. Bundan tashqari, u tilshunoslik bo'yicha "Arablar tili" nomli asar yozgan bo'lib, zamondoshlarining fikricha, tilshunoslik sohasida bunday asarni ungacha hech kim yozmagan.

Umrining oxirgi yillarida ibn Sinoning sog'ligi ancha yomonlashgan. U qachondir oshqozon muammolari haqida asar yozgan bo'lsa, endi o'zi shu darddan aziyat chekardi. Olim shunchalik zaiflashganidan dori qabul qila olmay qolgandi. U o'ziga "Meni boshqarayotganning endi boshqarishga kuchi yo'q, shu sababdan davolanish ham foydasiz", degan ekan. Ibn Sino es-hushi joyida bo'lib vafot etgan, uning so'nggi so'zlari quyidagicha edi:

Qora changdan tortib, samoviy jismlargacha

So'z-u amal sirin o'rgandim.

Barcha hiyla-nayranglarni, barcha tugunlarni yechdim,

Ammo o'lim tugunini yecha olmadim.[5]

Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabrda qadimgi Xorazmning Kot shahrida (hozirgi Beruniy shahri) tug'ilgan. U o'z ijodi bilan Xorazm fanini yuksak cho'qqiga olib chikdi. Uning siymosida o'rta asrlar Sharqining qomus ul-ilimi, astronomi, geografi, ma'danshunosi, etnografi, tarixchisi, shoiri mujassamlashgan. Beruniy qalamidan fanning turli sohalariga oid juda ko'p yirik asarlar chiqqan bo'lib, bu asarlarida uning ana shu sohalarini nihoyatda yaxshi bilgan tadqiqotchi, fanda yangidan yangi yo'llar ochgan donishmand bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Beruniy yoshligidan ilmga tashna bo'lgan bu haqda "Men bolalik chog'imdanoq – deb yozgan edi Beruniy – o'z yoshim va sharoitimga qarab, imkoni boricha ko'proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirish kifoya: - biz turadigan joyga bir yunon ko'chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug'lar, mevalar va hako زالarni olib borib, unga ko'rsatib va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so'rab, nomini yozib qo'yar edim".

1004 yilda u Xorazmshoh Ma'mun II ning taklifiga binoan Gurganchga qaytib keladi va Gurganchda shoh nomidagi "Ma'mun akademiyasi"ni barpo etadi.

Bu akademiya Abu Ali ibn Sino, Miskavayx, faylasuf Abu Sahl Masihiy, matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, tarjimon va hakim Abul Xayr ibn Xammor, adib va shoir Abu Mansur as-Saolabiy, Zayniddin Jurjoniy va boshqa o'nlab olimlar ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va ajoyib asarlar yaratdilar. Ma'mun davrida Xorazm iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan mislsiz darajada taraqqiy etdi, dunyoning eng nufuzli savdo markaziga aylandi. Xorazm ustidan o'tib, g'arb bilan sharqni bog'lab turgan yo'l orqali savdo karvonlari bu o'lkadan dunyoning turli burchaklariga dehqonchilik, hunarmandchilik mahsulotlaridan tortib, harbiy asbob-anjomlarga olib ketishardi. Bu erda turli kemasozlik korxonalar ham ishlab turganligi ma'lum. Bunday ko'lamdagi xo'jalikni boshqarish va katta savdo-sotiqni yo'lga qo'yish uchun ilm-fan matematika, geometriya, astronomiya, jug'rofiya, botanika, ximiya fanlarining taraqqiyoti zarur edi. Shu zaruriyat tufayli ilm va ijod ahli tashkiliy jihatdan birlashib, faoliyat ko'rsatganlar. Barcha qadimiy ilmiy manbalarda bu jamoa "Dorul hikma" ("Donishmandlar uyi") deb atalganki, bu "akademiya" mazmuniga to'g'ri keladi. Keyingi asrlardagi manbalarda bevosita "akademiya" so'zi qo'llanilayotganligi ham buni to'liq isbotlaydi.

Beruniyning hayoti va faoliyati avlodlarga shunday ta'sir qiladiki, uning asarlarini o'qigan kitobxon o'zini asarning ichiga tushib qolgandek his qiladi va asarlar ichidagi ilm sadaflaridan unumli foydalanishga harakat qiladi.[6]

Zamaxshariy (nisbasi; to'liq ism-sharifi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad) (1075.18.3, Xorazm, Zamaxshar qishlog'i — 1144, hoz. Ko'hna Urganch) — tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Oilasi islomning mutazila ta'limotiga e'tiqod qo'ygan bo'lib, Zamaxshariy dunyoqarashi dindor, taqvodor otasining ta'sirida shakllangan, dastlabki bilimni ham o'z otasidan olgan.

Zamaxshariy ko'p asarlarini Makkada yozadi. Shu boisdan u Jorulloh («Allohning qo'shnisi») degan sharafli laqabga muyassar bo'lgan. Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

«Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish», 1132—34) asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. Dunyoning turli qo'lyozma xazinalarida «Al-Kashshof»ning 100 ga yaqin qo'lyozmalari va asarning o'ziga bitilgan 20 dan ortiq sharh va hoshiyalar mavjud. Qohiradagi mashhur Al-Azhar dorilfununining talabalari ham boshqa tafsirlar bilan bir qatorda Zamaxshariyning ushbu asari asosida Qur'on o'rganadilar. Asarlarining qo'lyozmalari Germaniya, Misr, Turkiya, Eron, Frantsiya va Rossiyada saqlanadi.

Zamaxshariy asarlari nemis, frantsuz va boshqa tillarda nashr etilgan. Zamondoshlari Abusamad Muhammad Sam'oniy, Yoqut Hamaviy, Jamoliddin Qiftiy Zamaxshariy ijodiga yuksak baho berganlar.[7]

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyya Xattob ibn Sharik Narshaxiy mashhur tarixchi sifatida tanilgan. U 899 yil Buxoro vohasining Narshax qishlog'ida dunyoga kelgan. Alloma haqidagi ma'lumotlar manbalarda kam uchraydi. Bu haqda Sa'oniyning «Kitobul ansob» asarida u kishining to'liq ismini Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn xattob ibn Sharik deb keltirilgan. Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari orqali u kishi haqida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham "Tarixi Narshaxiy" ("Narshaxiy tarixi"), "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi"). "Tarix ul-viloyat" ("Viloyat haqiqatini aniqlash"), "Axbori Buxoro" ("Buxoro haqida xabarlar")kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i "Tarixi Buxoro" hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rnashib oldi. "Tarixi Narshaxiy" deb atalishi esa yuqorida eslatib o'tganimizdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelmokda. Shunga binoan, ushbu nashrda ham asarning nomi "Buxoro tarixi" deb qabul qilindi.[8]

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda bo'layotgan rivojlanishlarning asosi renessans davri bunyodkorlarining izlanish va tadqiqotlari sababdir. Ularning ilmiy izlanishlari va mehnatlari bugungi farovon hayotimizning asosiy tayanchidir. Ularning yozgan asarlari to'liq yetib kelmagan bo'lsa-da, bu asarlar bizga ulkan yutuqlarga erishishda turtki bo'ldi. Bugungi kunda buyuk mutafakkirlarimizning asarlaridan nafaqat Osiyoda, balki Yevropa davlatlarida ham

keng foydalanilmoqda. Ularning merosini asrab-avaylash esa kelajak avlodning burchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov M., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. - Toshken: Fan, 2019. 89-91b.
2. R. Murtazayev. O'zbekiston tarixi. - Toshkent 2001, 154-158b.

Internet saytlari:

3. <https://oyina.uz/uz/generation/199>
4. <https://corp.uzairways.com/uz/ahmad-al-fargoniy-797-865>
5. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/abu-ali-ibn-sino/>
6. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/453>
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/mahmud-zamaxshariy-1075-1144>
8. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/abu-bakr-muhammad-narshaxiyning-buxoro-tarixi-asari>